



JAHON TARIXI DARSLARINI O'QITISHDA BADIY ADABIYOTLARGA ILMIY-USLUBIY YONDASHUV.

Meyliyeva Saodat Ismatovna

*O'zbekiston Respublikasi IIV Toshkent 2-sonli Akademik litseyi tarix fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada jahon tarixi darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati samarali metod va usullar orqali tahlil qilinadi. Badiiy asarlardan misollar orqali VII-VIII- sinf o'quvchilarida tarixiy tafakkur, milliy qadriyatlar va global qadriyatlarning shakllanish yo'llari ko'rsatiladi.

Keywords: Tarixiy tafakkur, global qadriyatlar, tarixiy muhit, ijtimoiy ko'nikma, debat, klaster, dramatisatsiya, brainstorming, FSMU keys stadi, bumerang dars uslublari, milliy qadriyatlar va tarixiy dunyoqarash

Jahon tarixi darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanish o'quvchilarda tarixiy voqealarni nafaqat faktlar, balki insoniy obrazlar orqali anglash imkonini beradi. Debat, sahnaviy rolli o'yinlar, aqliy hujum, klaster, tushunchalar tahlili, tanqid va tahlil kabi interfaol dars uslublari bilan foydalanish o'quvchilarda tarixiy tafakkur va mustaqil fikrlashni, tarixiy dunyoqarashni shakllantiradi. Badiiy asarlarni tarixiy manbalar bilan solishtirish o'quvchilarda tarixiy faktlarni chuqur anglash imkonini beradi. Asarni yaxshi o'rganish tufayli debat darslari tashkil etish, dramatisatsiya, ya'ni rolli sahnaviy o'yinlar tashkil etish dars jarayoniga tarixiy muhitni olib kiradi va ijtimoiy ko'nikma, muloqot va jamoaning ish qobiliyatini oshiradi....

7-sinf jahon tarixi fanida VIII-IX asrlarda arab xalifaligi davri xalifa Horun ar-Rashid davrini Osiyo xalqlari madaniyatini "Ming bir kecha" asari orqali tushuntirish o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldiradi. Asarda Horun ar-Rashid davridagi VIII-IX asrlardagi afsona va rivoyatlar fors, arab, hind afsonalari asosida aks ettirilgan. XVI-XVII asrlarda esa kitob holiga keltiriladi. "Ali baba va qirq qaroqchi", "Sinbadning sayohatlari", "Shahrizodaning yangi bir ertagi" keyinchalik qo'shiladi. Shu o'rinda XVI-XVII asrlarda yashagan yurtdoshimiz Siddiqiy Xondayliqiy bu asarning "Sinbadning sayohatlari", "Baliqchi va jin "ertagi", "Sehrli gilam" kabi ayrim qismlarini eski o'zbek yozuviga tarjima qilgan...XVIII asrda bu asarni fransuz sharqshunosi Antuan Gallan 1707-1717 yillarda fransuz tiliga tarjima qilgach butun dunyoga mashhur bo'lib ketadi. Hozirgi kunda bu asar O'zbekiston, Rossiya, Turkiya kutubxonalarida saqlanadi. Shu o'rinda Abbosiy xalifa Horun ar-Rashid Fransuz imperatori Buyuk Karl bilan ham elchilar almashgan va ularga qimmatbaho sovg'alar bergan: fil suyagi, ipak matolar, marvarid, suv soati, oltin buyumlar va hokazo....Ba'zi manbalarda

aytilishicha Horun ar-Rashid (786-809 y) va buyuk Karl (768-814 y) yashagan. 800-yillarda elchilar almashgan va hatto Iyerusalim ya'ni Quddusdagi muqaddas joylar ustidan nasroniylarga homiylik qilish huquqini ham hadya qilgan deyishadi.

7-sinf tarix darslarida Fuzuliy, Hofiz Sheroziy va Alisher Navoiy, Z.M. Bobur haqida asarlarga murojaat qilishning ahamiyati juda katta ... Bizning xalqimiz azaldan she'riyatga va badiiy asarlarga oshno bo'lgan xalq...

“...Oshiqlar uxlaydi saharga tomon

Fuzuliy devonin boshiga qo'yib .

Majnun sevgisidan o'qilsa doston,

Bulbullar tinglaydi butoqqa qo'nib.

Xalqim jondan sevar dilbar kuylarni,

Xalqim she'riyatga shaydodir azal .

Nechun mahv etmasin fikru -o'ylarni,.

Nechun mahv etmasin qalblarni g'azal?...

“Muqavvas qoshlaring kim, o'sma birla rang tutmishlar

Qilichlardirki qonlar kechmish ila zang tutmishlar.

Sahar bulbullar afg'oni,dagil behuda gulshanda,

Fuzuliy nolai-dil so'zina ohang kechmishlar....”

Gazal ham bo'lurmi buncha dilrabo,

Bunchalar serishva,bunchalar sernoz.

Mening oshiqligim yolg'ondir ammo ...

Fuzuliy she'riga oshiqligim rost.

Majnundek beqaror bo'lib qolganim

Sar-sari yugurgan bulbullar aytsin,

Kechalar uyqusiz she'r yod olganim

Tongi ufqdagi yolqinlar aytsin.”

Ushbu she'r o'zbek xalqining sevimli shoiri Erkin Vohidovning “Fuzuliy haykali qoshida” she'ridan olingan . Ana shu hissiyotlarning o'ziyoq XX asrlarda she'riyatga xalqimiz qanchalik oshiqligidan darak beradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosi peshtoqida bir sharqlik shoimning asaridan jumlarlar keltirilgan.

Sa'diy Sheroziy 1210-1292 yillarda yashagan eronlik forsigo'y shoir . Bag'dodning Nizomiya va Mustansiriya madrasalarini tugatgan bu shoirning quyidagi jumalari hozirga qadar butun insoniyat ahlini hayratga soladi oradan ming yillar o'tsada....

“...Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo'lganlari tufayli, yaxlit bir vujud kabi dirlar. Binobarin zamon uning bir a'zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a'zolari ham o'z tinchini yo'qotadi...”Sa'diy Sheroziy “Guliston “ asaridan .

Hofiz Sheroziy 1325-1390 yillarda yashagan bo'lib, bu shoir va buyuk yurtdoshimiz Amir Temur haqida ajoyib rivoyat saqlanib qolgan. Rivoyatlarga



ko'ra Amir Temur Sherozni egallaganda u Hofiz Sheroziyni mashhur baytini eshitib qoladi.

:” Agar on turki Sheroziy ba dast orad dili moro,....

Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu-Buxororo....”

Tarjimasi:

“Agar ko'nglimni rom etsa o'shal Sheroz jononi...

Qaro xoliga baxsh etgum Samarqandu-Buxoroni....”

Bu baytdagi uyg'unlik va go'zal misralar, buyuk sarkardani hayratga soladi,lekin vataniga bo'lgan mehr uni g'azabini keltiradi. Keyin shoimi huzuriga chaqirib : - Ey hofiz, sen o'sha baytni yozganmisan? O'zing bir abgor holatda bo'lsang , Samarqand va Buxoro -mening poytaxtlarim.Ularni bir ayolni kulgusiga berasanmi –deydi.

Hofiz esa- “Ne qilayki sahovatpeshaligimdan barcha narsamni hammaga beraverib shunday abgor holatga tushib qoldim , hazratim “- deya kulib xotirjam javob beradi.

Hofizni donishmandligi tufayli she'riyat va san'at ahlini e'zozlagan Amir Temur uni ozod qiladi va mukofotlaydi.

VIII-sinf jahon tarixi fanida Fransiyada rivojlangan feodalizm davri va buyuk geografik kashfiyotlar,cherkov inkvizitsiyasini aks ettirgan asarlardan biri Anri va Serji de Golonning Anjelika romanlari seriyasi quyidagilar : ” Anjelika –farishtalar markizasi.”;“Anjelika Versal yo'lida”,”Anjelika va qirol”,”Anjelika qo'zg'olonda “,”Grafinya Anjelika yangi dunyoda “,”Anjelika Kvebekda”....Bu romanlar seriyasi 13 qismdan iborat . Bu asar 1957 yilda Parijda chop etilgan. Keyingi qismlari 1960-1980 yillarda yozilgan.Unda Fransiya qiroli Lyudovik XIV, ya'ni “Quyosh qiroli “ haqidadir. 1638- 1715 yil voqealari bayon etilgan.Fransiyada Versal saroyining qurilishi, xalqning ahvoli,Yaqin Sharqdagi mustamlakachilik siyosati , qulchilikning yangi ko'rinishlari ,cherkov inkvizitsiyasi, O'rta yer dengizidagi savdo sotiqlar , kofe, kakao mahsulotlarining Yevropagada keng tarqalishi Kanadaning egallanishi ajoyib sarguzashtlar orqali bayon etilgan. Asarda Shimoliy Afrikada Marokash va Tunis voqealari,sharqiy savdo yo'llari ,qulchilik ,dengiz qaroqchiliklari, sharqiy savdo yo'llari Yevropa mustamlakachilik siyosatiga doir voqealar aks ettiriladi. Bu asarlar seriyasi o'quvchilarning kitobga, badiiy asarlarga,jahon adabiyotiga mehrini oshiradi va tarixiy dunyoqarashini kengaytiradi .

O'quvchilarni jahon tarixi darslarida badiiy adabiyotga qiziqtirishda debat darslari, fikrlaming shiddatli hujumi darslari FSMU, klaster metodi sahnaviy rolli o'yinlar ya'ni dramatizatsiya brainstorming,guruh muhokamasi bumerang dars uslublaridan foydalanishning o'rni va roli juda kattadir. Tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanish o'quvchilarda faqat bilim emas, balki insoniy tafakkur,tarixiy tafakkur va estetik didni rivojlantiradi.Bu dars uslublari orqali



tarixiy voqealarni badiiy kontekstda o'rganish samarali hisoblanadi. Shu yo'l bilan o'quvchilar tarix faqat sanalar va faktlar emas, balki inson taqdiri orqali ham anglaydi. Milliy va global qadriyatlarni qadrlashni o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q." T-1998 y "O'zbekiston" nashr.
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" T-2008 yil "O'zbekiston" nashr.
3. Sh.M.Mirziyoyev "Bir makon, bir yo'l tashabbusi: xalqaro hamkorlikning yangi modeli T- 2023 yil." O'zbekiston " nashr.
4. John Devey "Ta'lim va tajriba".T-1997 y "Oqituvchi " n. "Uy sharoitida bola bilan 150 mashg'ulot "
5. M.Montessori "Uy sharoitida bola bilan 150 mashg'ulot "T-2021 y "Fan " n
6. H. Karomatov ,N.Komilov tarjimasi Ming bir kecha".T-G".G"ulom nashr.
7. Sa'diy Sheroziy "Guliston "asari T-1967 y G G".G"ulom nashr.
8. Анн и Серж Голон "Анжелика. Путь в Версаль" изд Азбука - 2014 г
9. Анн и Серж Голон "Анжелика. В Квебике" изд Азбука - 2004 г
10. Erkin Vohidov "Devon" 1987 yil -G'afur G'ulom nashriyoti

